

KASB – HUNAR MAKTABLARIDA ISHCHANLIK MUHITINI YARATUVCHI O'YINLAR

Ma'murov Nabijon Shokirovich

Farg'ona shahar kasb – hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Djoraboyeva Oynura Yuldashevna

Farg'ona shahar kasb – hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Sobirova Manzuraxon

Farg'ona tumani 2 – IDUMI kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ishchanlik muhitini yaratuvchi o'yinlar, ularning fanlarda qo'llash texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ishchanlik o'yinlari, o'rin almashtirish, joy almashtirish, o'tirib turish.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmanan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihat – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Joy almashish

Ishtirokchilar doira atrofida o'tiradilar, trener esa doira o'rtasida turadi. Yo'riqnomalari: doiraning markazida turgan kishi (boshida bu men bo'laman) biror umumiy belgiga ega bo'lgan narsani hammaga taklif etadi va kimda shu belgi bo'lsa u joyini almashadi. Masalan, men shunday deyman: «Mavzuga oid kimyo ingliz tili rus tili turgan o'rningizni almashting » va hamma aytilganlar joylarini almashirishlari kerak. Bunda doiraning markazida turgan kishi bo'shagan joyni egallahsga ulgurishi kerak. Markazda joysiz qolgan ishtirokchi esa o'yinni davom ettirishi kerak».

Mashq tugaganidan so'ng trener guruhga quyidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: «Siz o'zingizni qanday sezayapsiz?», «Hozir sizning kayfiyatningiz qanday?». Qoidagi muvofiq mashqlar quyidagicha o'tadi. U qizishganlikni pasaytiradi, kayfiyatini ko'taradi, diqqatini va fikrlarni faollashtiradi.

O'tirib turish.

Hamma ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar.

Yo'riqnomalar: «Men sizlarga u yoki bu panjalar sonini ko'rsataman. Ba'zan bir qo'lida, ba'zan ikki qo'lida, men qo'limni ko'tarishim bilan, shuncha ishtirokchilar o'rinalardan turishlari kerak, nechta ekanligini men ko'rsataman. (ko'p ham, oz ham emas) Masalan: agar men qo'limni ko'tarib to'rtta panjamni ko'rsatsam (ko'taradi va ko'rsatadi) unda mumkin qadar tezroq sizlardan to'rt kishi turadi. Qachonki, men kaftimni tushirsam, ular o'tirishlari mumkin».

Trener guruhga bir necha marta u yoki bu panjalarining sonini ko'rsatadi. Mashq boshlanishida 5-7 panjani ko'rsatish yaxshiroq bo'ladi, oxiriga borib esa 1-2 ta panjalarni. Mashqning bajarilishi jarayonida trener guruh ishtirokchilarinnig vazifani bajarishga bo'lgan intilishlari haqida mulohaza yuritadi va taalluqli xulosalar chiqaradi. Muhokama vaqtida trener guruhga bir necha savollar berishi mumkin: «Biz oldimizga qo'yilgan vazifani bajarishimizda nima yordam berdi, yoki uning bajarilishini nima qiyinlashtirdi?», «Siz turishga qaror qilganingizda nimani nazarda tutdingiz? Agar bizda bu vazifani oldindan muhokama qilish, qaror qilish imkoniyati bo'lganda, ishni qanday tashkil etgan bo'lardik?».

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-o'quvchilarning bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirigan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olish, ta'lim muammolarini yecha olish ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. U.N. Tashkenbayev "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" Jurnal "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019
2. I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev Kimyo darslik "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2017